



“TASDIQLAYMAN”

“O‘zbekko‘mir” AJ bosh direktori

N.U. Dusmatov

2026-yil 7-avgust

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

“O‘ZBEKKO‘MIR” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA O‘TKAZILGAN

01-20/103-son BAYONI

30.07.2026 y.

Angren sh.

Raislik qildi:

N.U.Dusmatov - “O‘zbekko‘mir” AJ bosh direktori

Ishtirok etdilar:

Bosh direktorning matbuot kotibi, Ijro apparati bo‘linmalari boshliqlari, Jamoatchilik kengashligiga nomzodlar;

Kun tartibi:

1. “O‘zbekko‘mir” AJ huzuridagi Jamoatchilik kengashining shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Jamoatchilik kengashi raisini saylash.
3. Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosarini saylash.
4. Jamoatchilik kengashi kotibini saylash.
5. Jamoatchilik kengashining 2026-yil II-yarim yilligi va 2027-yilga mo‘ljallangan ish rejasini tasdiqlash.
6. Boshqa masalalar.

(Dusmatov, Dushayev, Ijro apparati bo‘linma boshliqlari, jamoatchilik kengashiga nomzodlar...Dusmatov)

Kun tartibidagi masalalar bo‘yicha Bosh direktor N.Dusmatov so‘zga chiqdi:

Davlat rahbari tomonidan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatida ochiqlik, shaffoflik va jamoatchilik nazoratini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratilayotganini ta’kidladi. Jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolar hamda xodimlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yishda Jamoatchilik kengashining o‘rni beqiyos ekanligi e‘tirof etildi.

Shuningdek, yig‘ilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad — “O‘zbekko‘mir” AJ huzuridagi Jamoatchilik kengashining yangi vakolat muddati uchun shaxsiy tarkibini shakllantirish, sohaning tajribali mutaxassislari, fuqarolik jamiyati vakillari hamda faol yoshlar orasidan munosib nomzodlarni saylash va tasdiqlashdan iborat ekanligi bildirildi.

Shundan so'ng Axborot xizmati boshlig'i N. Dushaev so'zga chiqib, kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan axborot berdi:

2026-yil 16-iyuldagi 01-20/93-sonli bayonnoma bilan Jamoatchilik kengashi a'zoliciga nomzodlarni baholash yakunlari tasdiqlanganligi;

Ochiq tanlov natijalariga ko'ra, belgilangan baholash mezonlari asosida 70 va undan yuqori ball to'plagan 15 nafar nomzod Kengash a'zoliciga tavsiya etilganligi ma'lum qilindi.

Shu bilan birga, "O'zbekko'mir" AJ huzuridagi Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi Nizomga muvofiq, ta'sis yig'ilishida Kengash tarkibini tasdiqlash, Kengash raisi, rais o'rinbosari va kotibini saylash hamda Kengashning ish rejasini ma'qullash lozimligi ta'kidlandi.

Muhokama va ovoz berish jarayoni: Yig'ilish ishtirokchilari tomonidan Jamoatchilik kengashining Jamiyat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirishdagi o'rni yuzasidan o'zaro fikr almashildi.

So'ng Kengash rahbar organlarini saylash masalasi ko'rib chiqildi:

Kengash raisi lavozimiga — **Abdurashid Hasanov**;

Kengash raisi o'rinbosari lavozimiga — **Oybek Qoraqulov**;

Kengash kotibi lavozimiga — **Abdunodir Nosirov** nomzodlari taklif etildi.

Nomzodlar bo'yicha o'tkazilgan ochiq ovoz berish natijalari:

Ma'qulladi: **10 nafar**;

Qarshi: **yo'q**;

Betaraf: **yo'q**.

Ovoz berish natijalariga ko'ra, **A.Hasanov** — Kengash raisi, **O.Qoraqulov** — rais o'rinbosari, **A.Nosirov** — Kengash kotibi etib bir ovozdan saylandilar. Shunga ko'ra, Jamoatchilik kengashining 2026-yil II-yarim yilligi va 2027-yilga mo'ljallangan ish rejasi ham atroflicha muhokama qilinib, ma'qullandi.

Bildirilgan fikr, mulohaza va takliflar asosida yig'ilish ishtirokchilari **qaror qiladi**:

1. 2026-yil 16-iyuldagi 01-20/93-sonli bayonnoma bilan tavsiya etilgan nomzodlardan iborat "O'zbekko'mir" AJ huzuridagi Jamoatchilik kengashining shaxsiy tarkibi mazkur bayonnomaning **1-ilovasiga** muvofiq tasdiqlash uchun Jamiyat Bosh direktoriga kiritilsin.

2. Ochiq ovoz berish natijalariga ko'ra Abdurashid Hasanov Jamoatchilik kengashi raisi etib saylansin va Jamiyat Bosh direktori tomonidan tasdiqlanishi uchun tavsiya etilsin.

3. Ochiq ovoz berish natijalariga ko'ra Oybek Qoraqulov Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari etib saylansin va Jamiyat Bosh direktori tomonidan tasdiqlanishi uchun tavsiya etilsin.

4. Ochiq ovoz berish natijalariga ko'ra Abdunodir Nosirov Jamoatchilik kengashi kotibi etib saylansin va Jamiyat Bosh direktori tomonidan tasdiqlanishi uchun tavsiya etilsin.

5. Jamoatchilik kengashining 2026-yil II yarim yilligi va 2027-yilga mo'ljallangan ish rejasi mazkur bayonnomaning **2-ilovasiga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, "O'zbekko'mir" AJ huzuridagi Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi Nizom hamda tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq amalga oshirsin.

7. Jamoatchilik kengashi faoliyatini samarali tashkil etishda "O'zbekko'mir" AJ Axborot xizmati Kengashning doimiy ishchi organi sifatida tashkiliy, texnik va axborot jihatdan xizmat ko'rsatsin.

8. Jamoatchilik kengashi tomonidan qabul qilingan tavsiya va takliflar ko'rib chiqilishi uchun Jamiyatning tegishli tarkibiy bo'linmalariga belgilangan tartibda kiritib borilsin.

9. Jamiyatning Axborot xizmati Kengash faoliyatiga oid axborotlarni Jamiyatning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarida muntazam yoritib borsin.

10. Mazkur bayonnoma ijrosi yuzasidan nazoratni amalga oshirish Jamoatchilik kengashi raisi A. S. Hasanov zimmasiga yuklatilsin.